

**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE ROLE OF ZOONYMIC EXPRESSIONS IN DESCRIBING THE HUMAN IMAGE  
IN THE KOREAN LANGUAGE***Nigora Nosirova**Lecturer, Department of Korean Philology, Faculty of Oriental Languages**Samarkand State Institute of Foreign Languages*[nigoranosirova0702@gmail.com](mailto:nigoranosirova0702@gmail.com)*Samarkand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** zoonymic expressions, human image, conceptual model, phraseological units, metaphorical thinking, system of stereotypes and imagery, connotation.

**Received:** 10.11.25**Accepted:** 11.11.25**Published:** 12.11.25

**Abstract:** In recent years, issues related to expressing human behavior, character, and appearance through idiomatic expressions containing animal names have been widely studied in the fields of linguoculturology, phraseology, and semantics. This topic reveals the similarities and differences between the mentality and culture of the Korean and Uzbek peoples. The analysis of the conceptual model of the human image through zoonymic expressions—idiomatic units that include animal names—has been insufficiently explored.

Through this topic, it is possible to shed light on metaphorical thinking, semantic classification, and culturological parallelism.

**KOREYS TILIDA ZOONOMIK KOMPONENTLI IBORALARNING INSON  
QIYOFASINI IFODALASHDAGI O‘RNI***Nigora Nosirova**Sharq tillari fakulteti Koreys filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi**Samarqand Davlat Chet tillar Instituti*[nigoranosirova0702@gmail.com](mailto:nigoranosirova0702@gmail.com)*Samarqand, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so‘zlar:** Zoonimik komponentli iboralar, inson qiyofasi, konseptual model, frazeologik birliklar, metaforik tafakkur, stereotip va obrazlilik tizimi, konnotatsiya.

**Annotatsiya:** So‘nggi yillarda lingvokulturologiya, frazeologiya va semantika yo‘nalishlarida hayvon nomlari ishtirokidagi iboralar orqali inson fe‘l-atvori, xarakteri, tashqi qiyofasini ifodalash masalasi

ko'p tadqiq qilinmoqda. Bu mavzu koreys va o'zbek xalqlarining mentaliteti va madaniyatidagi o'xshashlik hamda farqlarni ochib beradi. Zoonimik komponentli iboralar — ya'ni hayvon nomi ishtirokidagi frazeologik birliklar orqali inson qiyofasining konseptual modelini tahlil qilish kam o'rganilgan.

Bu mavzu orqali metaforik tafakkur, semantik tasnif, va kulturologik parallelizmni yoritish mumkin.

---

## РОЛЬ ЗООНИМИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ В ОТРАЖЕНИИ ОБРАЗА ЧЕЛОВЕКА В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*Нигора Носирова*

*Преподаватель кафедры корейской филологии факультета восточных языков Самаркандского государственного института иностранных языков*

*[nigoranosirova0702@gmail.com](mailto:nigoranosirova0702@gmail.com)*

*Самарканд, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** зоонимические выражения, образ человека, концептуальная модель, фразеологические единицы, метафорическое мышление, система стереотипов и образности, коннотация.

**Аннотация:** В последние годы в области лингвокультурологии, фразеологии и семантики активно исследуется проблема выражения человеческого поведения, характера и внешнего облика посредством оборотов речи, включающих названия животных. Данная тема раскрывает сходства и различия в менталитете и культуре корейского и узбекского народов. Анализ концептуальной модели человеческого образа через зоонимические выражения — то есть фразеологические единицы, содержащие наименования животных — остается недостаточно изученным.

Исследование этой темы позволяет осветить метафорическое мышление, семантическую классификацию и культурологический параллелизм.

---

**Kirish.** Til inson tafakkurining mahsuli, milliy dunyoqarash va madaniyatning asosiy ifoda vositasidir. Har qanday til o'zida o'sha xalqning qadriyatlarini, urf-odatlarini, turmush tarzi va psixologik-ruhiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shu jihatdan frazeologik birliklar — xalq tafakkurining eng qadimiy va boy qatlamlaridan biri sifatida — milliy madaniyat, milliy xarakter va ijtimoiy ongini o'zida mujassamlashtiradi.

Koreys tili frazeologiyasida hayvon nomlari ishtirokidagi iboralar keng tarqalgan bo'lib, ular insonning tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori, hissiy holati va ijtimoiy mavqeini ifodalashda muhim semantik yuklamaga ega. Shu bois, bu turdagi birliklarni o'rganish koreys xalqning lingvokulturologik xususiyat va kores — o'zbek xalqlarining lingvokulturologik o'xshashlik hamda farqlarini aniqlash, milliy stereotiplar tizimini tahlil etish hamda metaforik tasavvurlar asosidagi konseptual modelni ochib berish uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zoonimik komponentli iboralar orqali inson qiyofasining konseptual modelini tahlil qilish hozirgacha koreys va o'zbek tillarida yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shu sababli bu mavzu nafaqat frazeologiya va semantika sohalarida, balki madaniyatlararo kommunikatsiya, psixolingvistika hamda lingvokulturologik tadqiqotlarda ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Asosiy qisim.** Tilda hayvon nomlari bilan bog'liq iboralar insonlarning tashqi ko'rinishi, fe'l-atvori, xarakteri, yoshi, jinsi, hatto hissiy holatini tasvirlashda muhim vosita hisoblanadi.

Chunki inson qadimdan tabiatdagi mavjudotlar xatti-harakatidan o'z hayotiga o'xshatmalar olib, ularni til orqali ifodalab kelgan. Shu sababli, zoonimik komponentli iboralar xalq tafakkurining tildagi eng obrazli qatlamini tashkil etadi.

Koreys va o'zbek tillarida hayvon nomlari ishtirokidagi frazeologizmlar xalqning dunyoni idrok etish uslubi, madaniy qadriyatlari va milliy xarakterini aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilida “it” yoki “tulki” obrazlari ko'pincha ayyorlik, sadoqat, vafodorlik yoki pastkashlik ma'nosini ifodalaydi. Koreys tilida ham “개 (it)” va “여우 (tulki)” o'zbek tili singari o'xshash semantik vazifani bajaradi, biroq ularning konnotatsiyasi madaniyatga xos farqlarga ega:

Inson tashqi qiyofasini ifodalovchi zoonimik iboralar<sup>3</sup>:

Tashqi ko'rinish yoki yuz ifodasini ifodalovchi zoonimik iboralar har ikki tilda ham ko'p uchraydi. Koreys tili misolida “강아지 같은 눈” — “kuchukchanning ko'zdek ko'zlar” iborasida insonning xarakteridagi yumshoqlik, beozorlik, mehribonlik kabi hislatlar mujassam ekanligini ko'rsatadi. “돼지 같다” — “cho'chqaga o'xshamoq, cho'chqa kabi” iborasi odatda tartibsiz yoki semiz odam haqida hazil aralash ishlatilishi yoki haqorat ma'nosini ham ifodalshi mumkin. 너는 돼지 같다! “Sen cho'chqadaysan”.

Inson fe'l-atvori va xarakterini ifodalovchi zoonimik iboralar:

“호랑이 같다” — “Yo'lbarsdek qat'iy, qo'rqinchli”. Koreys xalq og'zaki ijodi, ertaklar va afsonalarda 호랑이 obrazi juda qadimdan mavjud.<sup>4</sup> U ko'pincha yosh jihatdan katta kishilarga nisbatan qo'llanilib, insonga xos bo'lgan qat'iylik, kuch, jasorat, adolat ba'zan esa qo'rqinchli,

jazolovchi obraz qiyofasini ham ifodalaydi. Shuning uchun bu soʻz konnotatsiyaga ega boʻlib ijobiy hamda salbiy maʼno kasb etishi mumkin.

Koreys lingvokulturologiyasida ushu ibora “호랑이 선생님” (Yoʻlbars oʻqituvchi), “호랑이 아버지 (Yoʻlbars ota) kabi shakllarda uchraydi.

Zero, koreys xalqining tarixiy tafakkurida yoʻlbars — bu milliy himoyachi, togʻlar va tabiat ruhini ifodalovchi hayvon sifatida namoyon boʻladi. Shunga koʻra oʻqituvchini “호랑이 선생님” deyish — bu salbiy emas, balki, oʻqituvchiga nibatan hurmat va intizom ifodasini aks ettiradi. Ota obrazini “호랑이 아버지” tarzida ifodalash esa qattiqqoʻl, ammo adolatli va mehribon ota siymosini ochib beradi. “곰 같다” — “Ayiqdek, ayiqqa oʻxshamoq”. Koreys madaniyatida ayiq ogʻirharakat, tinch, samimiy, sodda va hech kimga zarar yetkazmaydigan odamga nisbatan ishlatiladi. Baʼzida kontekstda salbiy maʼnoni ham ifodalshi mumkin. Bu paytda “aqli emas, biror narsani kech anglaydi” degan ohangda, haqorat emas yumshoq taʼna maʼnosini bildiradi. 그는 너무 곰 같아서 눈치가 없어. U shunchalik ayiqdayki, zehni emas.

Zoonimik iboralar inson xarakteri, tashqi qiyofasini ifodalash bilan birgalikda insonning ruhiy holatini va munosabatini ifodalashda ham keng qoʻllaniladi. Koreys tilida zoonimik iboralar orqali insonning ruhiy holatini, his-tuygʻularini, qoʻrquvi yoki quvonchini juda tabiiy va obrazli ifodalaydilar. Zoonimik iboralar orqali insonning ichki kechinmalari va psixologik reaksiyalari ochib beriladi. Bu koreys xalqining milliy tafakkuriga xos metaforik tafakkur va obrazli ifoda vositalaridan biridir. Masalan, 닭살이 돋다 — “tovuq terisi chiqmoq, tanasi jimirlab ketmoq” iborasi koreys madaniyatida ruhiy hayajon, qoʻrquv yoki hijolat kabi fiziologik holatlarni ifodalashda ishlatiladi. 돼지꿈을 꾸다 (choʻchqa haqida tush koʻrmoq) iborasida 돼지 (choʻchqa) boylik va omad ramzi sifatida qaralib, insonning ruhiy jihatdan xursandlik, baxt kutilishi yoki ijobiy kayfiyatni ifodalashda xizmat qiladi.

“닭대가리 같다” — “tovuq boshli kabi” iborasi esa insonning ruhiy beparvolik, unutulchanlik yoki diqqat yetishmasligini bildiradi. “개처럼 울다” — “itdek yigʻlamoq” iborasi esa insonning chuqur ichki kechinmasi — juda alamli, dardli yigʻlash holatini ifodalaydi.

Zoonimik obrazlar orqali milliy tafakkur va stereotiplar

Zoonimik iboralarda xalqning madaniy stereotiplari ham aks etadi. Masalan, koreys xalqi madaniyatida “개처럼 일하다” — “itdek ishlamoq” salbiy, yaʼni “ortiqcha mehnat qilish” maʼnosini bildirsa, oʻzbek tilida esa “itday sadoqatli” iborasi insonga berilgan ijobiy bahoni ifodalaydi.

Bundan tashqari, “tulki” obrazi har ikki tilda ayyorlik, hiylagarlik bilan bog‘liq bo‘lsa-da, koreys tilida u go‘zal, aql bilan harakat qiluvchi ayolni ifodalashi ham mumkin (여우 같은 여자) o‘zbek tilida esa odatda salbiy ma’noda — hiylakor ayol qiyofasini ifodalshda ishlatiladi.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi tashqi ko‘rinishni ifodalaydigan “ayiqdek yigit”, “arslon kelbatli yigit”, “qo‘y ko‘zli”, “tulki yuzli”, “burgut ko‘zli”, inson fe‘l-atvori va xarakterini ifodalovchi zoonimik iboralardan “sher yurakli”, “quyon yurak”, “suv ilon”, “tovuq aql(miya)”, “mushukdek yuvosh”, insonning ruhiy va hissiy holatlarini aks ettiruvchi hayvon nomli iboralar esa sog‘lomlikka ishora qiluvchi “otdek”, atrofqa diqqat bilan qaraydigan, doim xavotirda yuradigan inson ruhiy holatini ifodalovchi “quyondek sergak”, hissiz, befarq, sovuqqon kishiga nisbatan “ilondek sovuq”, holdan toyish va charchoq holatini ifodalovchi “itdek charchamoq”, alamli, achinarli holatni ifodalovchi “itdek yig‘lamoq” kabi zoonomik komponentli iboralar ikki xalqning milliy tafakkur va stereotiplarini aks ettiradi.

**Xulosa.** Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, koreys va o‘zbek tillarida zoonimik komponentli iboralar orqali insonning tashqi qiyofasi va ichki dunyosi metaforik tafakkur asosida tasvirlanadi. Har ikki tilda bu iboralar milliy madaniyat, qadriyatlar va xalq psixologiyasining ifodasi sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ayrim

hayvon obrazlari har ikki tilda turlicha baholovchi ma’no kasb etadi, bu esa ikki xalqning dunyoni idrok etishdagi o‘ziga xosliklarini ochib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. 김영희. (2008). 한국어 동물 비유 표현의 의미와 문화적 특성 연구. 서울: 한국문화사.
2. 박미숙. (2012). 동물 관련 한국어 관용표현의 인지언어학적 분석. 한국언어문화, 9(2), 35–58.
3. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO ‘Z TURKUMLARIDA POLISIMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
4. Базарова, Ш. (2024). Судьба женщины в рассказах Айдын Собировой. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(2/S), 24-28.
5. Shuxratovna, B. S. (2024). O ‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.
6. G‘ulomov, A. (1985). O‘zbek frazeologiyasining asosiy masalalari. Toshkent: Fan.
6. Mamajonov, A. (2006). O‘zbek tili frazeologizmlarining milliy-madaniy xususiyatlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

7. Karimova, D. (2019). O‘zbek tilida hayvon nomlari ishtirokidagi frazeologizmlarning semantik tahlili. Filologiya masalalari jurnali, №3, 45–52.

8. Turakulova S.F. (2025). Theoretical Basis for Expanding Vocabulary in Teaching the Korean Language. American Journal of Philological Sciences, 5(04), 137–140. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue04-34>.